

## Zamonaviy raqamli nivelirlar

XXI asr texnika texnologiya asri deb bejiz aytishmaydi. Yildan-yilga zamonaviy, dasturiy ta'minotli texnikalar rivojlanib bormoqda. Bu esa har bir sohaning rivojiga yuqori natijalarni beradi. So'ngi yillarda yuqori aniqlikdagi nivelirlarning yangi turi – elektron raqamli nivelirlar ishlab chiqildi. Bu esa shu soha mutaxassislari uchun ko'plab qulayliklar olib kelmoqda. Geodeziya va geoinformatika kafedrasida katta o'qituvchisi Inamov Aziz Nizamovich "Zamonaviy raqamli nivelirlar" mavzusida Yer resurslarini boshqarish fakulteti talabalariga Ochiq ma'ruza o'tdi. O'qituvchi talabalarga mavzuni Ana'naviy nivelirlar va xamonaviy nivelirlarning farqlari, qulaylik va imkoniyatlarini tushintirish bilan boshladi:

An'anaviy nivelirlardan raqamli nivelirlar elektronika bilan jihozlanganligi va maxsus ish dasturlari bilan ta'minlanganligi farq qiladi. Bu esa dala o'lchash ishlarini va natijalarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, jumladan:

- shtrix – kodli nivelir reykasini bo'yicha sanoq olishini avtomatik ravishda bajarishi;
- o'lchash natijalariga ko'rish trubasi vizir o'qining silindrik adlak o'qiga parallel emasligi hamda yer egriligi va refraksiya holatlari uchun tuzatmalarni avtomatik ravishda kiritish;
- nivelir bilan reyka orasidagi masofa 100 m gacha bo'lganda gorizontal qo'yilishni 25 mm gacha aniqlikda avtomatik o'lchashi;
- o'lchash natijalarini avtomatik ravishda ichki yoki tashqi yodlash moduliga yozish;
- nivelirlash yelkalarini tengligi va nisbiy balandlik o'lchash natijasini avtomatik tekshirib borish;
- nuqtalar balandligini tabloga chiqarish;
- o'lchangan ma'lumotlarni yozib saqlash uchun xotira kartasidan foydalanish;
- asbobni boshqarish jarayoni qulayligi, shuningdek undan foydalanishni o'zlashtirib olish osonligi.

Talabalar dars davomida ana'naviy nivelirlar va xamonaviy nivelirlarning farqlari, qulaylik va imkoniyatlarini bilib olishdi, keyindi darslarda esa o'zlari amaliyotda qo'llay boshlaydilar.



**O'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi Maftuna Tosheva axboroti**